

## **INKLYUZIV TA'LIMDA TARBIYA MASALALARI**

*Otaxonova Layloxon  
Qo'qon universitetitalabasi*

**Annotatsiya:** Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzARB masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda.

**Kalit sozlar:** Inklyuziv ta'lim, tarbiya, ta'lim, bola, boshlang'ich ta'lim, maktab

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'limgan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziy ta'lim-alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlarini va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Tarbiya har bir bola uchun katta ahamiyat kasb etishi barchamizga ayon. Ayniqsa Inklyuziv tarbiyaning bola hayotida tutgan o'rni beqiyos. Jismonan imkoniyati cheklangan bolalarda ularning psixologik onggorini kelajakka ishonch hissi bilan tarbiyalash ota-onas va atrofdagi jamiyat(albatta pedagog ham)ning asosiy vazifalaridan biridir.

*“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”* - degan edi Abdulla Avloniy. Bu fikr adibda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan emas albatta. Inson yaralibdiki, u doimo ma’naviy va ijtimoiy tarbiyaga hamda ta’limga ehtiyoj sezib yashaydi. Imkoniyati cheklangan bolalarda tarbiya mavzusi ta’lim kabi eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek – *“ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi, bu sharqona qarash va sharqona hayot falsafasi”* hisoblanadi.

Maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi ularni o‘qish va yozishga o‘rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko‘mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soxa xodimlari hamda nogron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi. Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muammarini ular o‘zlari yashab turgan muxitdan, oiladan uzoqda ta’lim tarbiya berish bilan hal qilib bo‘lmaydi. Jamiyat o‘z a’zolariga javobgarlikni o‘z bo‘yniga olmas ekan, cheklab qo‘yilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin. Maxsus ehtiyojli bolalarni ta’lim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko‘plab bolalar turli xildagi sabablarga ko‘ra ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta’limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko‘rib chiqish ya’ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alovida yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor: Birinchidan, alovida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar ham sog’lom bolalar bilan birgalikda o‘zaro faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta’lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalananadilar, sog’lom bolalar esa ijtimoiyadolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e’tibor bilan munosabatda bo‘lishni his etadilar. Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog’lom tengdoshlari bilan yonmayon o‘qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etishga bo‘lgan ehtiyoj bu shunda namoyon bo‘ladiki, ta’lim tizimidan butunlay chetda qolib ketayotgan maxsus ehtiyojli bolalarni ta’limga jalb etish, maxsus muassasalarga borishga yashash joyi juda uzoqda bo‘lganligi yoki moddiy mablag’ning yetishmasligi yoki ota-onalarning o‘z farzandini maxsus muassasaga borishini hohlamasligi oqibatida qiynlalayotgan ota-onlalargan ko‘mak berish, maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiy jamiyatga erta va to‘laqonli moslashtirish, teng huquqlilik masalasini hal etish, kamsitishlarni oldini olishdadir.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi naflji jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi: Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi. Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan iternatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-onada mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi. Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta'lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi. Jamiyatda nogironlarga nisbatan yanglish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim tarbiya berilishi bunga sababa bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zları singari bola ekanliklarni anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

Xulosa o'rnida shuni aytgan bo'lardimki, har qaysi inson farzandi nafaqat oilasi, balki butun boshli jamiyat uchun eng aziz ne'matlardan biridir. Garchi uning jismoniy yoki aqliy chekshanishlari bo'lsa ham. Hatto jonivorlarga ham ta'lim bera olgan inson, ongi bor mavjudotni yuksak tarbiya bilan kamol toptirishiga hech shubha yo'q. Buning uchun barchamiz bolalarni birdek ardoqlashimiz va ularni inkluziv ta'lim tarbiya orqali bu dunyoda kerakli shaxs ekanligini eslatib turishimiz va albatta zarur bo'lsa, Ulardan ham o'qitadigan pedagoglarni tarbiyalshimiz hozirgi davrimizning eng muhim mezonlaridan bo'lsa ajab emas.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat faravonligi ./Xavfsizlik va tarqaror taraqqiyot yo\_lida. -T.: "O'zbekiston", 1998, B.400.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - "O'qituvchi", 1996 yil.
3. Vatan va millat, muqaddasdir. -T.: "Ma'naviyat", 2000 yil.
4. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. — T.: Fan, 1995. — 87 b.
5. Muxsieva A. Oilada milliy tarbiyaning metodik asoslari. — T.: Fan, 2009. - 120 b.

6. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
6. Саматов, С. М., & Сайдуллаев, А. (2020). О некоторых свойствах собственного значения двухчастичного дискретного оператора Шредингера. In Modern stochastic models and problems of actuarial mathematics (pp. 114-115).
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
8. Jumanova, S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
9. Bromwich D. (2015). Trapped in the Virtual Classroom. The New York Review of Books.
10. Глазьев С.Ю. (2016). Экономика будущего. Есть ли у России шанс? / С.Ю.Глазьев. - М.: Книжный мир.
11. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583..
12. Майхнер Х.Е. (2002). Корпоративные тренинги / Х.Е. Майхнер. - М.: ЮНИТИ.
13. Jumanova, S. B. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHISINING ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI MILLIY QADRIYATLARIMIZNI O'RGANISHNING SAMARALI OMILLARI. Results of National Scientific Research International Journal, 1(9), 311-321.